

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.04.2022.FIL.20.07 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV OXUNJON IKROM O'G'LI

**O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Abdullayev Oxunjon Ikrom o‘g‘li

O‘zbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik
tahlili..... 3

Абдуллаев Охунжон Икром ўғли

Лингвокультурологический анализ современной лексики в узбекском и
каракалпакском языках..... 25

Abdullayev Oxunjon Ikrom o‘g‘li

Linguocultural analysis of modern vocabulary in the Uzbek and Karakalpak
languages..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 51

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.04.2022.FIL.20.07 RAQAMLI ILMIY DARJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV OXUNJON IKROM O'G'LI

**O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3440 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi www.karsu.uz va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Shuxrat Dauletbayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
filologiya fanlari doktori, professor

Saparbayeva Gulandam Masharipovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: www.karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: www.karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi “___” – raqamli reestr bayonnomasi).

M.S.Kudaybergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Kurbaniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi taraqqiyotida tilni turli sohalar bo'yicha zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganish tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Tilning lug'at tarkibi doimo rivojlanishda, o'sishda bo'lganligi sababli shu sohaga doir tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, ma'lum bir tilning lug'atini yaratishda yangi terminlarni izohlash, yangi tushunchalarning fonetik, leksik, grammatik, lingvokulturologik jihatlarini yoritish eng muhim masalalardan biridir. Til millatning ma'naviyati va madaniyati bilan bevosita hamda bilvosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o'zi yo'q ekan, ma'lum bir tilning tarovati o'z til so'zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning ma'lum darajada omuxtalashishi, birining ikkinchisiga ta'sir ko'rsatishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Tilning ma'naviyat va madaniyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'zlashma so'z va uning zamirida o'zlashmoqda.

Dunyo tilshunosligida turli mavzular qatorida leksikologiya ham turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatli masala hisoblangan va chuqur tadqiq etilayotgan leksikologiya masalasi yetakchi sohalardan biridir. Leksikologiya azaldan tilshunoslikning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiqotlar davom etar ekan, leksikologiyaga ham "zamonaviy" maqomini berib, yangi yo'nalishlar, yangicha metodlar bilan tadqiq etish birlamchi vazifa hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida tadqiqotchilar oldida bir qator vazifalar belgilab berilmoqda. Jumladan, davlat tilining nufuzini yanada oshirish, tilimizni dunyo tillari darajasiga olib chiqish, qardosh tillarning o'zaro aloqasini yanada mustahkamlash dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da ko'rsatilgan "2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasining QS va THE xalqaro reytinglarga kirishiga maqsadli tayyorlash, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini 2026-yilgacha 50 taga yetkazish, shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnika, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish"¹ borasidagi vazifalar tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarnig kengayishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarqkiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, URL: <https://lex.uz/docs/5841063>.

son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi va ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Tilning leksik sathi, terminologiya va leksik birliklarning lingvokulturologik tahlilining qiyosiy tadqiqi doim dunyo tilshunoslari diqqat markazida bo’lib kelgan. Jumladan, R.A.Budagov², E.Coseriu³, L.A.Onikov⁴, N.V.Shishlin⁵, N.S.Trubetskiy⁶, H.A.Baskakov⁷ kabi olimlar tillarning leksik sathi va terminologiya singari masalalarga e’tibor qaratishgan.

Lingvokulturologiyaga doir qimmatli izlanishlar V.V.Maslova⁸, V.fon.Gumbolt⁹, Z.I.Salieva¹⁰, D.Xudayberganovalarning¹¹ tadqiqotlarida o’z aksini topgan. Qolaversa, so’nggi yillarda o’zbek hamda qoraqalpoq tillari leksikasi, terminologiyasiga doir ilmiy izlanishlarni A.Hojiyev¹², N.Mahmudov¹³, A.Madvaliyev¹⁴, H.Dadaboyev¹⁵, D.Kadirbekova¹⁶, O.Bekbaulov¹⁷, O.Dospanov¹⁸, Sh.Abdinazimov¹⁹, A.Pirniyazovalarning tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin²⁰.

O’zbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksika va uning lingvokulturologik tahliliga bag’ishlangan tadqiqotlar to’liq o’rganilmagan. Shu sababli bu tillardagi o’z va o’zlashgan qatlamga oid yangi so’zlarni qiyosiy yo’nalishda tahlil qilish zarurati mavjud. Qoraqalpog’istonda o’zbek va qoraqalpoq

² Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – МГУ.: 1989.

³ Coseriu E. Das Phänomen der Sprache. Sonderdruck aus Heft 1/2 der Pädagogischen Provins. – Berlin.: 1967.

⁴ Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug’at. – T.: O’zbekiston. 1983.

⁵ Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug’at. – T.: O’zbekiston. 1983.

⁶ Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ.в.1. – М.: 1960;

⁷ Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. – М.: “Издательство академии наук СССР”, 1951.

⁸ Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: 1987.

⁹ Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М.: 1985.

¹⁰ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент.: УзГУМЯ, 2010.

¹¹ Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent.: Fan. 2013.

¹² Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. – T.: 2005.

¹³ Н.Махмудов. Тил ва маданият. – Тошкент.: Ўзбекистон. 1992.

¹⁴ Madvaliyev A. O’zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. – T.: 2017.

¹⁵ Dadaboyev H. O’zbek terminologiyasi. . “Yoshlar”. – T.: 2019.

¹⁶ Kadirbekova D. “Inglizcha–o’zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari”. PhD.diss. – Toshkent.: 2017.

¹⁷ Бекбаўлов О. Қарақалпақ тилиндегі өзлестирме сөзлердің қолланылыуы. Қарақалпақ тили бойынша изертлеўлер. – Нөкис.: “Қарақалпақстан”. 1971.

¹⁸ Доспанов О. Қарақалпақ тили қубла диалектиниң лексикаси. – Нөкис.: “Қарақалпақстан”. 1977.

¹⁹ Abdinazimov Sh va b. Házirgi qaraqalpaq tili. Fonetika, Leksikologiya. “Sano-standart”. – Toshkent.: 2018.

²⁰ Пирниязова А.К. Пути формирования и развития общественно-политической лексики в современном каракалпакском литературном языке: Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Ташкент.: 1986.

tillari davlat tili ekanligi bois ilmiy yo‘nalishda yoki boshqa sohalardagi ba’zi tushunchalarning izohini topishda lug‘atlarga ehtiyoj seziladi. Bu masalani hal etishda zamonaviy so‘zlarning hamda soha lug‘atlarining yaratilishi zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining “Turkiy tillarni tadqiq qilishning tarixiy va lingvomadaniy xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksikani lingvokulturologik va semantik-struktur tahlil qilish, sohalarda paydo bo‘layotgan va o‘zlashayotgan yangi so‘zlarni qiyosiy o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashayotgan so‘zlarning o‘zlashish yo‘llari va usullarini qiyosan o‘rganish;

o‘zbek va qoraqalpoq tillari soha terminologiyasi masalasiga doir mulohazalarni o‘rganish hamda qayd etish;

bugungi kundagi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida lug‘atchilik sohasida olib borilayotgan ishlar natijalarining ahamiyatliligini ochib berish;

yangi so‘zlarning adabiy til va nutq madaniyatiga ta’sirini yoritib berish;

o‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashayotgan yangi so‘zlarning ma’nolari, yasalishi va tuzilishi hamda imlo masalalariga oydinlik kiritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va qoraqalpoq tillarining izohli lug‘atidagi va lug‘atlarga kiritilmagan zamonaviy so‘zlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini sohalarga eng ko‘p o‘zlashayotgan zamonaviy so‘zlarni lingvokulturologik, struktur-semantik va imlo me’yorlari bo’yicha qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni yoritishda chog‘ishtirma, qiyosiy-tarixiy, statistik, tavsifiy (konseptual) va madaniyatlararo tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasidagi zamonaviy so‘zlar ma’noviy guruhlariga ajratilib, xorijiy tillardan eng ko‘p o‘zlashayotgan so‘zlar sohalari aniqlangan hamda ularning ma’nolari tahlillar asosida ochib berilgan;

o‘zbek va qoraqalpoq tillarining so‘nggi izohli lug‘atidan joy olgan va lug‘atlarga kiritilmagan yangi so‘zlar tasniflanib, ularning o‘rganilayotgan tillardagi leksikografik ahamiyati aniqlangan;

o‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashgan zamonaviy so‘zlar sohalarga ajratilib, ularning o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tiliga ta’siri hamda lingvokulturologik xususiyatlari misollar orqali dalillangan;

zamonaviy so‘zlarning tillarda yasalishi, tuzilishi hamda imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilishiga doir tavsiyalar bildirilib, ikki tilning yozma va og‘zaki me’yorlariga moslashtirilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksika ikki tilning lug‘at tarkibini boyitishga, izohini topmagan termin va iboralarning tilimizdagi

muqobilini shakllantirishga hamda zamonaviy lugʻatchilikning yaratilishiga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqotda oʻzbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili, struktur-semantik jihatdan oʻxshash va farqli tomonlari ochib berilib, azaldan qardosh boʻlgan tillarning bir-biriga taʼsiri misollar yordamida izohlanganligi kelgusidagi qiyosiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishida amaliy yordam berishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv va usullar, nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, tilshunoslikning zamonaviy ilmiy tamoyillari asosida oʻrganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻzbek va qoraqalpoq tillarida nazariy tilshunoslikning leksikologiya, leksikografiya va lingvokulturologiya sohalarini qiyosiy-tipologik oʻrganishda hamda tillarning farqli va oʻxshash jihatlarini yoritishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi natija va xulosalar qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, lingvokulturologiya, terminologiyaga oid darslik va oʻquv qoʻllanmalar yozishda; oʻzbek va qoraqalpoq tillarining tarjima, izohli va etimologik lugʻatlarini yaratish va mukammallashtirishda; oliy taʼlim muassasalarida “Leksikologiya”, “Leksikografiya”, “Terminologiya” kabi maxsus fanlarni oʻqitishda manba hamda material vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oʻzbek va qoraqalpoq tillari leksikasidagi zamonaviy soʻzlar maʼnoviy guruhlariga ajratilib, xorijiy tillardan eng koʻp oʻzlashayotgan soʻzlar sohalarini aniqlanganligi hamda ularning maʼnolarini tahlil qilish bilan bogʻliq ilmiy-nazariy xulosalardan A-FA-2019-9 raqamli “Qadimiy yozma noyob qoʻlyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan Ogahiy “Asarlar” silsilasining 6-8-9-jildlarini nashrga tayyorlash va chop etishda foydalanilgan (Xorazm Maʼmun akademiyasining 2025-yil 30-yanvardagi 33/4-25-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur jildlarni tayyorlashda kuzatilgan xatoliklar bartaraf etilgan, ayrim soʻzlar maʼnolarining izohiga oydinlik kiritilib, nashr sifatining oshishiga erishilgan;

oʻzbek va qoraqalpoq tillarining soʻnggi izohli lugʻatidan joy olgan va lugʻatlarga kiritilmagan yangi soʻzlar tasniflanib, ularning oʻrganilayotgan tillardagi leksikografik ahamiyatiga doir materiallardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish” nomli fundamental loyihada qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 30-yanvardagi 45/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur loyihadan joy olgan asarlar leksikasi boyitilib, ba‘zi so‘zlar izohlarini to‘ldirish orqali asarlar mazmunining boyitilishiga erishilgan;

o‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashgan zamonaviy so‘zlar sohalarga ajratilib, ularning o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tiliga ta’siri va lingvokulturologik xususiyatlari hamda zamonaviy so‘zlarning tillarda yasalishi, tuzilishi hamda imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilishiga doir tavsiyalardan, ikki tilning yozma va og‘zaki me‘yorlariga moslashtirilganligi xususida Qoraqalpog‘iston telekanalining “Assalawma áleykum, Qaraqalpaqstan!” ko‘rsatuvini tayyorlashda “O‘zbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili” mavzusidagi chiqishda hamda Qoraqalpog‘iston radiokanalining “Xalıq penen sáwbet” eshittirishining “21-oktyabr – o‘zbek tili bayrami” mavzusidagi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 25-apreldagi 05-22/251-son ma‘lumotnomasi). Natijada adabiy-badiiy, ma‘naviy-ma‘rifiy dasturlarda zamonaviy leksikaning ahamiyati va o‘ziga xosliklari ochib berilgan hamda eshittirish davomida tinglovchilardan kelgan savollarga javob berishda, taklif va mulohazalarga keng tushuntirishlar berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 10 ta, jumladan, 5 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta (2 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola va respublika jurnallarida 1 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasi hamda lingvokulturologiyaga doir tadqiqotlar”** deb nomlangan bo‘lib, u uch bo‘limdan tashkil topgan. Birinchi bo‘limda o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasining shakllanishi va taraqqiyoti masalasi tadqiq etildi. Ushbu bo‘limda hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tillarining lug‘at tarkibidagi so‘zlarning paydo

bo'lish va kelib chiqish manbalari tog'risida fikr yuritildi. Tarixiy-taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ikki tilning leksik qatlamiga ta'siri yuzasidan mulohazalar bildirildi.

O'zbek va qoraqalpoq tillari qarindosh turkiy tillar bo'lib, H.A.Baskakovning tasnifi bo'yicha o'zbek tili qarluq guruhiga, qoraqalpoq tili qipchoq-nog'ay guruhiga kiradi²¹. Bu ikki xalqning tili katta tarixiy davrga ega. Qoraqalpoq tilining Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat tili sifatida qonun bilan belgilanishi tilning ko'p ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqardi²². Shu asosda qoraqalpoq tiliga rus tili yoki boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar qoraqalpoq tilidagi so'zlarga almashtirildi. Shunday qilib mustaqillik davridan boshlab o'zbek va qoraqalpoq tillari rivojlanishining yangi tarixiy bosqichini paydo bo'ldi. "Tilda o'zlashmalarning ko'payibi borishiga asosiy sabab xalqlar va tillarning aloqaga kirishishi, ijtimoiy omillarning harakati bilan aloqador. Yangi so'zlarning o'zlashtirilishi jamiyatning rivojlanish darajasini va ijtimoiy aloqalarning, yangi predmet, tushuncha paydo bo'lishining ijtimoiy ahamiyatini aks ettiradi"²³.

XIX asr oxiri – XX asr oxirigacha bo'lgan davrda olinma so'zlar bevosita rus tilidan o'zbek va qoraqalpoq tiliga qabul qilingan. *Zavod, mashina, telegramm* leksemalari ham shunday jarayonni boshidan kechirgan²⁴. Mazkur leksemalar dastlab sanoat va axborot-kommunikatsiya sohalari termini sifatida o'zbek tiliga kirib kelgan. Ma'lum vaqt o'tgach, o'zbek va qoraqalpoq tili aholisi uchun tushunarlik kasb etgan umumiste'mol leksikaga aylangan. XX asr boshlarida o'zbek va qoraqalpoq tillarining fan sifatida o'qitila boshlashi, maktablarda grammatikaning o'qitilishi ikki adabiy til me'yorining shakllanishiga sabab bo'lgan edi. O'zbek leksikografiyasi shu davrda ham nazariy, ham amaliy ko'rinishda – yana qayta yangi bir fan sifatida shakllandi. XX asrda o'zbek tili lug'atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

Qoraqalpoq tili leksikasining rivojlanish masalasini tilshunos olimlar quyidagi davrlarga bo'lib o'rganadilar:

birinchi davr – 1924-yildan 1940-yilgacha bo'lgan davr;

ikkinchi davr – 1940-yildan 1960-yilgacha bo'lgan davr;

uchinchi davr – 1960-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi²⁵.

Bundan ma'lum bo'lyapti-ki, mustaqillikdan keyingi davrda kirib kelgan so'zlar masalasi hali yetarlicha tadqiq qilinmagan.

²¹ Баскаков, Н.А. Каракалпакский язык. Академия наук СССР.– Москва.: Издательство АН СССР, 1951.

²² Турабаева Н.А. Қорақалпоқ тили лексикасининг ривожланишида ўзбек тилининг таъсири. ф.ф.н., дис. – Нукус, 2008, 3 б.

²³ Бекбаёлов О. Қарақалпақ тилиндеги өзлестирме сөзлердің қолланылыуы. – Қарақалпақ тили бойынша изертлеулер. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1971.- 133 б.

²⁴ Internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va qaydnomalari asosida tashkil etilgan ma'lumotlar ombori va elektron jadvallar bilan jamoa bo'lib ishlashga imkon beruvchi korxona va tashkilot miqyosidagi kompyuter tizimi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. IVjild. 186-bet.

²⁵ Турабаева Н.А. Қорақалпоқ тили лексикасининг ривожланишида ўзбек тилининг таъсири. ф.ф.н., дис. – Нукус, 2008, 9 б.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“O‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasida yangi o‘zlashma so‘zlarning o‘rni va ahamiyati”** deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda o‘zbek va qoraqalpoq tillarining izohli lug‘atlari va lug‘atlarga kirib kelayotgan yangi o‘zlashma so‘zlarning o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Tilimizdagi barcha so‘zlarni muayyanlashtirish maqsadida 2013-yil A.Madvaliyev, E.Begmatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan, soha mutaxassislari va omma talabini qondirishi mumkin bo‘lgan 85 000 dan ortiq so‘zni qamrab olgan **“O‘zbek tilining imlo lug‘ati”** (T., Akademnashr, 2013) shu davrning muhim yangiliklaridan biri hisoblanadi²⁶.

2022-yil A.Madvaliyev tahrirligi ostida to‘ldirilgan va qayta ishlangan 6 jildidan iborat **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”** nashr etildi. Yangi nashrda so‘nggi 10 yillikda tilimizga kirib kelgan ko‘pgina so‘zlarning izohi berilgan.

“Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati” esa 1992-yilda nashr qilingan bo‘lib, u 4 jildidan iborat va bu lug‘atda so‘nggi yillardagi so‘zlar, terminlar joy olmagan edi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi terminologiya markazi tomonidan izohli lug‘atning yangi nashri tayyorlanib, 2023-yilda 7 jildidan iborat yangi tahrirda chop qilindi. Bu ishga Qoraqalpog‘iston Respublikasi terminologiya markazi rahbari, professor Sh.Abdinazimov rahbarlik qilgan. Yangi izohli lug‘at to‘ldirilgan, birmuncha yangi so‘zlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda 60 mingdan ortiq so‘z va terminlar qoraqalpoq tilining so‘z boyligini o‘zida mujassam etgan.

Manbalarda so‘z o‘zlashtirishning ikki yo‘li borligi ta’kidlanadi:

1) jonli so‘zlashuv orqali so‘z o‘zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi so‘zlar o‘zbek va qoraqalpoq tiliga mahalliy aholining og‘zaki nutqi orqali o‘tadi. Masalan, *online, restaurant, site* so‘zlari o‘zbek tilining jonli so‘zlashuvidan *onlayn, restoran, sayt* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o‘zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o‘zlashgan;

2) bosma manbalar orqali so‘z o‘zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi matnni o‘zbek va qoraqalpoq tiliga tarjima qilish yoki shu tillarda yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so‘zlarini (ayniqsa, termin va atamalarini) ishlatish orqali bo‘ladigan o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet, gipotenuza*, adabiyotshunoslikdagi *kulminatsiya, syujet* kabi terminlar, *ocherk, roman, povest* kabi so‘zlar shu yo‘l bilan o‘zlashtirilgan²⁷.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘z olib kirgan tillar sifatida 16 ta til so‘zlaridan misollar berilgan. Bular sirasiga *arab, fransuz, fors-tojik, golland, hind, ingliz, ispan, italyan, lotin, mo‘g‘ul, nemis, polyak, rus, xitoy, yunon, chex* tillari kiritilgan. Biroq adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati²⁸ va qisqacha siyosiy lug‘at²⁹da *portugal* va *skandinavcha* tillardan olingan so‘zlar ham ko‘rsatilgan. Bu kabi

²⁶ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.12-jild. 2008, 65-bet.

²⁷ Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2005, 196-bet.

²⁸ Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1979, 6-bet.

²⁹ Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug‘at. –T.: O‘zbekiston, 1983, 6-bet.

tillardan olingan soʻzlar maʼlum bir sohaga oid termin ekanligi uchun “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan oʻrin olmagan boʻlishi mumkin.

Bobning uchinchi boʻlimi **“Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologiyaga doir tadqiqotlar”** deb nomlanib, unda ikki tildagi zamonaviy yoʻnalishlardan biri hisoblangan lingvokulturologik tadqiqotlar masalasiga eʼtibor qaratilgan.

Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar oʻrtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning oʻzaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy oʻziga xosligi kabi qator til va madaniyatshunoslik oʻrtasidagi alohida sohasi va predmetiga ega boʻlgan yangi yoʻnalish – lingvokulturologiyaning shakllanishini taqozo qildi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi *lingvokulturologiya* jadal rivojlandi.

“*Lingvokulturologiya*” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya³⁰, V.A.Maslova³¹ va boshqalarning ishlarida kuzatiladi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldt³²ga borib taqalishini taʼkidlaydilar. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida E.Sepir³³, A.N.Leontev³⁴, M.Y. Lotman³⁵ kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol oʻynaganligi taʼkidlanadi. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga koʻra til nafaqat madaniyat bilan bogʻliq, balki u oʻzida madaniyatning oʻsishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning oʻzida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini taʼminlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida maʼnaviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish materiallari real yaratiladi.

Tilshunoslarning eʼtirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.Fon Gumbolt³⁶ tomonidan yaratilgan oʻquv qoʻllanma hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar oʻzbek tilshunosligida ham oxirgi oʻn yilliklarda paydo boʻla boshladi. Masalan, Z.I.Saliyeva³⁷ning nomzodlik ishi oʻzbek va fransuz tillaridagi sentensiya, yaʼni axloqiy-taʼlimiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bagʻishlangan. R.S.Ibragimovanning

³⁰ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

³¹ Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: 1987, 20-23 с.

³² Gumbolt V.Fonning til va shaxs haqidagi fikrlari toʻgʻrisida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent.: Akademnashr, 2012, 23-40-bet.

³³ Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в 1. – М.: 1960.

³⁴ Леонтьев А.Н. Человек и культура. – М.: МГУ, 1961.

³⁵ Лотман М.Ю. О двух моделях коммуникации в системе культуры. – М.: ОГИ, 1971.

³⁶ Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М.: 1985, 33 с.

³⁷ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент.: 2010, 25 с.

nomzodlik dissertatsiyasida esa *ayol* konseptining o'zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo'llari tadqiq etilgan.

Professor N.Mahmudov³⁸ning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova³⁹ bu borada o'zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish tamoyillari yoritib berilgan. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi.

Lingvokulturologiya sohasi qoraqalpoq tilshunosligida endi kurtak yozayotgan yo'nalishdir. Qoraqalpoq tilida lingvokulturologiyaga oid bir qancha tadqiqotlar olib borildi va davom etmoqda. Masalan, G.K.Kdirbayevaning dissertatsiyasi "man" – "adam" konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)" deb ataladi. Ushbu ishda madaniyatlararo "man" – "adam" konseptosferasining voqelanish holatlari, konseptosferaning madaniyatlararo lingvokognitiv va lingvomadaniy o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

G.A.Adilovning dissertatsiyasi "Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili" deb nomlangan bo'lib, unda tilshunoslikda ilk bor Qoraqalpog'iston qozoqlarining etnografizmlari shu hududda yashab kelayotgan xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, turmush tarzi, milliy urf-odat va qadriyatlarini o'zida ifodalovchi dialektal leksik qatlam ekanligi isbotlab berilgan. Sh.M.Kunnazarovning dissertatsiyasida qoraqalpoq xalq ertaklari tili maxsus lingvokulturologik yo'nalishda o'rganilgan. Unda ertaklar tilining lug'at tarkibi aniqlanib, so'zlar tematik guruhlariga ajratilgan va ma'no xususiyatlari belgilangan.

B.K.Bekniyazovning dissertatsiyasida Qoraqalpog'iston qozoqlari tilidagi somatik frazeologizmlar o'rganilgan. Tadqiqotda Qoraqalpog'istonlik qozoqlar tilida faol qo'llaniladigan somatik frazeologizmlarning boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi lingvomadaniy, jonli so'zlashuv tiliga xos kognitiv tadqiqi amalga oshirilgan.

Qolaversa, o'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik tadqiqot olib borgan I.R.Kazakov⁴⁰ning izlanishlari ikki milliy tilning qiyosiy o'rganilishini yangi bosqichga olib chiqdi. "O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik

³⁸ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent.: 2012, №5 3-16-bet.

³⁹ Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent.: Fan, 2013, 38-b.

⁴⁰ Kazakov I. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini. Monografiya. – T.: "Firdavs-shoh nashriyoti", 2023, 49-55-bet.

birliklar talqini” nomli monografiyasida ikki qardosh tildagi lingvokulturologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlari juda keng va aniq yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek va qoraqalpoq tillarida yangi o‘zlashma so‘zlarning sohalarga doir ma’no taraqqiyoti”** deb nomlanib, ushbu bob uch bo‘limdan tashkil topgan. Birinchi bo‘lim **“Iqtisodiyot sohasiga doir yangi leksikaning qo‘llanilishi”** xususida tahlillar amalga oshirilgan. Mustaqillikdan so‘ng iqtisodiyot sohasida o‘zbek tili bazasida darslik, qo‘llanma va lug‘atlar yarata oladigan, soha terminlarini tartibga solish bilan shug‘ullana oladigan mahalliy kadrlarni yetishtirish muhim vazifa bo‘lib qoldi. Bir qator chora-tadbirlar tufayli O‘zbekistonda iqtisod fani va iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish, iqtisod fanini o‘qitish sifatini oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada iqtisodiyot yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalari uchun tarjima darsliklari bilan bir qatorda o‘zbek mualliflari mustaqil ravishda yaratgan iqtisod darsliklari, qo‘llanmalari hamda bir qator terminologik lug‘atlar yuzaga keldi.

Ba’zi ruscha-baynalmilal iqtisodiy leksika o‘zbek tiliga tarjima qilindi yoki muqobil varianti qo‘llanilmoqda: *auksion* – *kimoshdi savdosi*, *barter* – *ayirboshlash*, *brakeraj* – *saralash*, *garant* – *kafil*, *defitsit* – *taqchillik*, *dolya* – *hissa*, *kapital* – *sarmoya*, *makler* – *dallol*, *oborot* – *aylanma*, *ssuda* – *qarz*, *schet* – *hisob*.

Bu terminlarning qoraqalpoq tilidagi muqobili quyidagicha: *aukcion* – *kimasti sawdası*, *barter* – *ayirbaslaw*, *brakeraj* – *saralaw*, *garant* – *kepil*, *deficit* – *qıtshılıq*, *dolya* – *úles*, *kapital* – *investiciya*, *makler* – *dáldálshi*, *oborot* – *aylanis*, *ssuda* – *qarız*, *schet* – *esap*.

Iqtisodiyot sohasidagi yangi leksikani o‘zbek va qoraqalpoq tillariga qabul qilishda quyidagi jihatlarni e‘tiborga olmoq lozim:

- uning o‘zbekcha yoki qoraqalpoqcha muqobili bor-yo‘qligiga;
- kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga;
- iqtisodiy leksikaning mazmuniga;
- uning sodda va ravonligiga;
- so‘zlarning o‘zbek va qoraqalpoq tilining tovush tizimiga mosligiga.

Shunga ko‘ra, quyida tilimizdagi iqtisodiyot sohasiga oid o‘zlashma so‘zlarning semantikasi va lingvokulturlologik o‘zgarishlar xususida fikr yuritamiz.

Balans – (*fran. “Tarozi”, lot. “Tarozining ikki pallasi”*) o‘zbek tilida muvozanat, tenglik kabi ma’nolarda (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild 253-bet. Keyingi o‘rinlarda O‘TIL deb beriladi) qo‘llanilsa, qoraqalpoq tilida qandaydir jarayonlarni tavsiflab, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish nazarda tutiladi. Bu so‘z o‘zbek va qoraqalpoq tillari iqtisodiyot sohasida *savdo balansı*, *buxgalteriya balansı*, *aktiv balans*, *passiv balans* kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. (Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. I jild 350-bet. Keyingi o‘rinlarda QTTS deb beriladi)

Bonus – (*lot. “Yaxshi”, “Marhamatli”*) o‘zbek tilida turli xil munosabat bilan beriladigan qo‘shimcha haq, mukofot, ustama (O‘TIL. I jild 532-bet) ma’nosida qo‘llanilsa, qoraqalpoq tilida 2 xil ma’noda qo‘llaniladi: 1) qo‘shimcha

rag‘batlantirish, mukofot; 2) kelishuv shartlariga mos, sotuvchining xaridorga taklif etgan qo‘shimcha chegirmasi. (QTTS, II jild 178-bet).

Diler – (ingl. Dealer – “*Birja dalloli*”) bu so‘z o‘zbek va qoraqalpoq tillarida bir xil ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) tovar mahsulotlarining oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi, o‘z nomidan va o‘z mablag‘lari hisobidan harakat qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs (O‘TIL.I jild 853-bet); 2) qimmatbaho qog‘ozlar, valyutalar hamda qimmatbaho metallar oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi, fond birjasi a‘zosi jismoniy yoki yuridik shaxs (QTTS.III jild 166-bet).

Piramida – (yun. pyramis) bu so‘zning O‘TILda 7 xil, QTTSda 4 xil ma’nosi izohlangan. Asosan, qadimgi Misrda fir’avnlarning qabri ustiga qurilgan uchburchak inshoot yoki geometrik shaklni bildiradi (QTTS.VI jild 71-bet). Bu so‘z bugungi kunda iqtisodiyotda *moliyaviy piramida* tarzida qo‘llanilib, ma’lum bir maqsadlar uchun odamlardan pulini ko‘paytirish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi (O‘TIL. III jild 728-bet). *Moliyaviy piramida* (Ponzi sxemasi) firibgarlik turi bo‘lib, unga ko‘ra avvalgi investorga va‘da qilingan daromad yangi kelgan investorlar mablag‘i hisobidan to‘lab beriladi. Moliyaviy piramidada jabrlanuvchilar (“investorlar”) kelayotgan foyda boshqa investorlar hisobidan emas, balki qonuniy tijoriy operatsiyalardan (masalan, omadli investitsiyalar, tovar sotuvi) keladi, deb o‘ylashadi.

Biznesmen – (ingl. Business – ish, +man – odam”) biznes bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ma’nosida qo‘llaniladi (QTTS. II jild 98-bet). Bu so‘z o‘rnida o‘zbek tilida qadimdan *tadbirkor*, *ishbilarmon* qo‘llanilgan (O‘TIL. I jild 504-bet). Tadbirkor ilgari tadbirli, tashkilotchi odam, ishbilarmon esa ma’lum bir ishning sir-asrorlarini batafsil biladigan odam ma’nolarida qo‘llanilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan iqtisodiyot sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi odamlarga nisbatan qo‘llanilgan. *Biznesmen* so‘zi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida gender jihatdan ham farqlanadi. Biznes bilan shug‘ullanadigan erkak kishiga nisbatan *biznesmen*, ayol kishiga nisbatan esa *biznes ledy* so‘zlari qo‘llaniladi.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida **“O‘zbek va qoraqalpoq tillarida axborot-kommunikatsiya sohasidagi zamonaviy leksika”** haqida so‘z yuritiladi.

Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish jarayoni dunyo mamlakatlarida turli darajada kechmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari (keyingi o‘rinlarda AKT) keng ma’noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq fan, texnikaning xilma-xil tarmoqlari birligini o‘zida namoyon etadi. Kompyuterlar inson faoliyatida katta qulayliklar, yengilliklar yaratadi.

O‘zbek tilida AKT terminlarining leksikografik masalalari D.Kadimbekovanning “Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida zamonaviy AKT terminlari qiyosiy tahlil qilingan⁴¹. O‘zbek tili leksik qatlamida AKT leksikasiga doir o‘zlashmalarning sezilarli mavqeyi saqlanib qolmoqda.

⁴¹Kadimbekova D. “Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari”. PhD. diss – Toshkent.: 2017, 10-bet.

O'zlashmalarning til leksikasi boyishidagi o'rnini birgina internet leksikasi misolida ko'rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o'zbek tili internet leksikasining 54% ini o'zlashmalar, chunonchi, rus tilidan o'zlashgan internet leksikasi 31%, ingliz tilidan aynan o'zlashgan baynalmilal internet leksikasi 23%ni tashkil etishini ko'rsatgan.

O'zbek va qoraqalpoq tillari leksikasidagi AKT sohasiga doir so'zlarning lingvokulturologik jihatdan tahlilini quyidagi misollar bilan yoritib berishga harakat qildik:

Blog – (ingl. “*blog, web-log*”) avvallari maishiy va harbiy sohaga tegishli so'z bo'lib, ma'lum hudud yoki miqdor bilan chegaralangan qism tushunilgan. Masalan: *harbiy blog*. Keyinchalik tilimizda AKT sohasiga o'zlashib voqea-hodisalarning internet jurnali, onlayn kundalik ma'nolarini bildiradi (QTTS. II jild 155-bet). Qolaversa, matnlar yoki multimediyalarni izchil yozib borishdan iborat web-saytga nisbatan ham qo'llaniladi. Blogni yurituvchi kishi esa *bloger* deyiladi (O'TIL. I jild 507-bet).

Virus – (lot. “*O'simlik shirasi*”, “*Zahar*”) faqat tirik hujayralarda ko'payib, odam, hayvon va o'simliklarda yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar (O'TIL. V jild 701-bet). Dastlab tibbiyot sohasiga xos bo'lgan bu so'z hozirda o'zbek va qoraqalpoq tilining AKT sohasida ham faol qo'llanilmoqda (QTTS. II jild 316-bet). U kompyuter dasturlarini, lokal va shaxsiy kompyuterlarning ishlashiga, fayllar, ma'lumotlarga zarar yetkazuvchi maxsus dasturdir. Ularga qarshi turuvchi yaratilgan dasturlar esa kompyuter *antivirusi* deyiladi.

Kommentariya – (lot. *Commentarius*-“*sharhlar, izohlar, tafsir*”) o'zbekcha sharh, izoh kabi ma'nolarda qo'llaniladi (O'TIL. II jild 885-bet). Qoraqalpoq tilida esa ma'lum bir matnda, kitobda uchraydigan ko'pchilikka tushunarsiz so'zni yoki holatni o'qish, yo'l-yo'lakay tushuntirib ketish (QTTS. IV jild. 172-bet). Bu so'z o'zbek va qoraqalpoq tillariga rus tilidan o'zlashgan bo'lib, yuqoridagi ma'nosidan tashqari AKT sohasida ma'lum matnli yoki video axborotlarga kuzatuvchilar tomonidan bildirilgan munosabat mazmunida qo'llaniladi. Bunday munosabatlar ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Platforma – (fr. *Plate-forme* – “*tekis, yassi shakl, maydoncha*”) bu so'z ilgari o'zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham bir nechta sohalarda qo'llanilgan (O'TIL. III jild 754-bet). Jumladan, transport sohasiga doir so'z sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

- 1) poyezdga chiqish uchun mo'ljallangan o'rin;
- 2) yuk tashishga mo'ljallangan, unchalik katta bo'lmagan usti ochiq vagon;
- 3) temiryo'l bo'yidagi kichik stansiya.
- 4) ijtimoiy-siyosiy leksika sifatida: bitta partiya yoki jamoaning oldiga qo'yilgan siyosiy maqsadlarning dasturi, o'z manfaati uchun harakat qilish uchun tanlagan yo'li (QTTS. VI jild 82-bet).
- 5) hozirda bu so'z AKT sohasida ham faol qo'llanilib, ma'lum maqsad uchun foydalanuvchilarga mo'ljallangan sayt va dasturlarning majmuyi ma'nosida qo'llaniladi.

Programma – (yun. *Programma*-“*E’lon, ko’rsatma, yo’l-yo’riq*”) mazkur soʻz oʻzbek va qoraqalpoq tillariga rus tilidan toʻgridan-toʻgʻri oʻzlashgan hamda quyidagi maʼnolarda qoʻllaniladi:

- 1) qilinadigan ishlarning bosh rejasi (OʻTIL. III jild 807-bet);
- 2) ijtimoiy-siyosiy sohada partiya yoki tuzilmaning ishlar mazmuni, asosiy koʻrsatmalari;
- 3) ilm-fan sohasida oʻquv fanlarining qisqacha mazmuni va ishlanadigan ishlar dasturi;
- 4) teatr, konsert dasturlarining mazmuniy roʻyxati, qogʻozda aks etishi (QTTS. VI jild 95-bet);
- 5) Hozirda AKT sohasida kompyuterda maʼlum bir masalani yechish uchun axborotni qayta ishlashda ketma-ketlik jarayonining formal tildagi tavsifi kabi maʼnolarda qoʻllaniladi.

Spam – (ingl. “*Foydalanuvchi tomonidan soʻralmagan axborot*”) reklama matnlarini, uning oldini olishni xohlamagan shaxslarga axborotni yuborish maʼnosini bildiradi (QTTS. VI jild 322-bet). Hozirda biror sayt yoki ijtimoiy tarmoqda nomaʼlum murojaatchilarga nisbatan axborot berish yoki olishga qoʻyilgan cheklov maʼnosida qoʻllaniladi. (OʻTILga kiritilmagan).

Bobning uchinchi boʻlimi “**Fan-texnika sohasiga oid zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili**” deb nomlanadi. Bu boʻlimda ikki tilning leksik qatlamidagi fan-texnika sohasidagi zamonaviy soʻzlarning lingvokulturologik jihatdan tahlili keltirildi.

Oʻzbek va qoraqalpoq tillari leksik tizimida muayyan tushunchalarning muqobili boʻlmaganligi bois ularni bitta soʻz bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Chetdan kirib kelayotgan tushunchani bir qancha soʻzlar yordamida izohlash yoki tavsiflash leksikologiya talablariga ziddir. Mana shunday holatlarda ruscha-baynalmilal soʻzlar “donor” tilda qanday shaklda boʻlsa, oʻzbek va qoraqalpoq tillariga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilingan. Masalan: *бюджет* - byudjet, *кредит* - kredit, *атом* - atom, *геолокация* - geolokatsiya, *дедукция* - deduksiya, *аудитор* - auditor, *фракция* - fraksiya, *интеграция* - integratsiya, *дипломатия*-diplomatiya, *нанотехнология*-nanotexnologiya kabi.

Tadqiqotda hozirgi paytda oʻzbek va qoraqalpoq tillarida qoʻllanilayotgan fan-texnika sohasiga doir baʼzi zamonaviy soʻzlarning qoʻllanishi tahlil qilindi:

Model – (fr. “*Oʻlchov, meʼyor*”) 1) ishlab chiqarishga tegishli yoki ishlab chiqarilayotgan narsaning namunasi (OʻTIL. III jild 215-bet). 2) biror narsaning kichraytirilgan nusxasi, maketi. 3) ishlab chiqarilgan texnikaning markasi (QTTS. IV jild 186-bet). Masalan: *yangi mashina modeli*. Hozirda ikki tilda ham moda sohasida faoliyat olib boradigan insonlarga nisbatan *model*, *modelyer* tarzida qoʻllaniladi.

Selektor – (lot. “*Saralagich, tanlab oluvchi*”) bu soʻz oʻzbek va qoraqalpoq tillarida bugungi kunda texnika sohasida ham, AKT sohasida ham birdek qoʻllanilmoqda: 1) bir qancha joylarning markaz bilan telefon orqali tez aloqasini taʼminlash maqsadida boshqa aloqa vositalariga bogʻlangan elektromexanik qurilma, moslama (OʻTIL. IV jild 589-bet). 2) televizorning zarur kanalini tanlab

olish imkoniyatini beruvchi texnik yoki elektron holda ishlaydigan mexanizm. 3) turli hududlarni birlashtirib onlayn aloqa orqali o'tkaziladigan yig'ilish (QTTS. VI jild 252-bet).

Terminal – (ingl. “*Oxirgi, oxiriga tegishli*”) bu so'z ikki tilga birdek o'zlashgan bo'lib, 4 xil ma'noda qo'llaniladi: 1) hisoblash tizimi tarkibiga kiruvchi, xabarlarini tizimga kiritish va undan chiqarib olishga mo'ljallangan tashqi qurilma (O'TIL. V jild 223-bet). Masalan, kompyuter vositalari (*monitor, sichqoncha, protsessor va b.*) 2) portning (havo yoki dengiz porti) konteynerlari va yuklarini saqlash hamda qayta ishlashga mo'ljallangan qismi. 3) umumiy saqlanadigan katta miqdordagi yuklar saqlanadigan omborxona. 4) AKT sohasida plastik kartalar yordamida har xil hisob-kitob va to'lovlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan elektron qurilma (QTTS. VII jild. 153-bet). Qolaversa, aeroportning kirish hamda kutib turiladigan qismiga nisbatan ham terminal so'zi qo'llaniladi.

Analiz - tahlil: 1) yaxlitni tarkibiy qismlarga fikran yoki fizik ajratishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli; 2) bo'laklarga ajratish, nimanidir ko'rib chiqish.

Analiz - talqin: 1) pútindi quramlıq bóleklerge oyda yaki fizikalıq ajratıwdan ibarat ilimiy izertlew usılı; 2) bóleklerge ajratıw, nenidur kórip shıǵıw.

Verifikatsiya – nazariy qoidalar chinligini tekshirish, ishonchliligini tajriba yo'li bilan aniqlash.

Verifikatsiya – teoriyalıq qaǵıydalarǵın haqıyqıylıǵın tekseriw, isenimliligın tájiriye jolı menen anıqlaw.

Ideya – g'oya: 1) narsa yoki hodisa haqidagi umumiy tushuncha; moddiy dunyoni in'ikosi bo'lgan inson tafakkurining mahsuli; 2) nazariy tizim, mantiqiy qurilmalar asosida turadigan belgilovchi tushuncha; 3) fikr, tafakkur.

Ideya – pikir: 1) nárse yaki hádisse haqqındaǵı uluwmalıq túsinik; materiallıq dúnyanıń orayı bolǵan insan oylawınıń jemisi; 2) teoriyalıq sistema, logikalıq qurilmalar tiykarında turatuǵın belgilewshi túsinik; 3) pikir, oy.

Informatsiya – 1) qandaydir xabar; 2) saqlash, qayta ishlash va kuzatish obyekti hisoblanuvchi ma'lumot.

Informatsiya – 1) qandayda bir xabar; 2) saqlaw, qayta islew hám baqlaw obyekti esaplanatuǵın maǵlıwmat va hokazo.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili, tuzilishi va imlo masalalari”** deb nomlanib, u uch bo'limdan iborat. Bobning birinchi bo'limi **“O'zbek va qoraqalpoq tillarida yangi ijtimoiy-siyosiy leksikaning lingvokulturologik tahlili”** deb nomlanib, asosan, ijtimoiy-siyosiy sohaga doir zamonaviy so'zlar tahlilga tortilgan.

Bugungi kunda hali lug'atlarimizda qayd etilmagan ko'pgina o'zlashmalar matbuot sahifalarida qo'llanib kelinmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy doirada qo'llanayotgan ko'plab yangi leksemalarning o'zbekcha-qoraqalpoqcha lug'atlarda tavsiya etilgan variantlari mavjud emas. Bizningcha, ularni zarurat bo'lsa, tilimiz tabiatiga moslashtirib, lug'atlarimizga kiritish lozim. Chunki hurmatli Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning

bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir"⁴².

XX asrdan mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy leksika masalalari maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, tilshunos olimlarimizdan A.Hojiyev, G.Muxammadjonova hamda N.G'.G'ulomovalarning turli tadqiqotlarida ham mazkur masalaga aloqador ko'plab fikrlar uchraydi.

Qoraqalpoq tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid maxsus ilmiy ish sifatida A.Pirniyazovaning 1986-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiya ishini ta'kidlash joiz. Unda qoraqalpoq tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining rivojlanish yo'llari, ijtimoiy-siyosiy tushuncha, atamalar yasalishining leksik-semantik, affiksatsiya, sintaktik usullari, tarixiy kelib chiqishiga oid qatlamlari, sobiq ittifoq davridagi materiallar asosida ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Qolaversa, A.Najimovning "Mustaqillik yillarida qoraqalpoq tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining rivojlanishi" deb nomlangan (PhD) dissertatsiyasida qoraqalpoq tiliga mustaqillikdan keyin o'zlashgan, paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy leksika va uning tadqiqiga bag'ishlangan ishni alohida ta'kidlash joiz.

A.To'raxojayeva mustaqillik davrida o'zbek tilining lug'at tarkibida boshqa qatlamlarga nisbatan ijtimoiy-siyosiy leksikada quyidagi o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi: 1) ijtimoiy-siyosiy leksemalar qo'llanishining faollashishi; 2) ijtimoiy-siyosiy leksemalarning ma'no o'zgarishiga uchrashi; 3) eskirgan so'zlarni yangi ma'noda qo'llash. Bunday so'zlarga olim *hokim, hokimiyat, vazir, madhiya, rayosat, ma'muriyat, qo'mita* so'zlarini kiritadi.

